

I.Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

magistr yoki oliy ma'lumot to'g'risidagi (ixtisoslik bo'yicha) diplomga ega bo'lganlar;

dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qiluvchi ilmiy maqolalarga ega bo'lganlar (ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislari);

kamida ikki yillik ilmiy-pedagogik ish staji yoki muayyan ilmiy yutuqlar (ixtiro uchun patentlar yoki mualliflik guvohnomalari)ga ega bo'lganlar.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar Akademiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Akademiya boshlig'i nomiga mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish haqida ariza;

talabgorning qisqacha biografik ma'lumotnomasi;

oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;

ilmiy ishlar ro'yxati va ularning nusxasi;

ish joyidan tavsifnoma.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishda dissertatsiya himoyasiga qadar izlanuvchilar:

ixtisoslik hamda chet tili bo'yicha malakaviy imtihon topshirishi;

dissertatsiya bo'yicha umumiy soni **7 tadan kam bo'lmagan ilmiy ish** e'lon qilishi, xususan:

- ulardan kamida **3 ta ilmiy maqola** (jumladan nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda **1 ta maqola**) OAK Ro'yxatiga kiritilgan nashrlarda chop etilishi;

- dissertatsiya natijalarining xalqaro va respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida keng muhokamasi asosida kamida **2 ta material** (maqola, ma'ruza yoki ma'ruza tezisi) xalqaro konferensiya materiallari to'plamida e'lon qilingan bo'lishi **SHART**.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida o'qish **uch yilgacha** davom etadi.

II. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi shaxslar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan ilmiy darajaga ega bo'lganlar;

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qiluvchi ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar Akademiyaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Akademiya boshlig'i nomiga mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish haqida ariza;

talabgorning qisqacha biografik ma'lumotnomasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;

ilmiy ishlar ro'yxati va ularning nusxasi;

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) diplomi yoki xorijda olingan unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar diplomi nusxasi;

ish joyidan tavsifnoma.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya himoya qilishgacha izlanuvchilar:

dissertatsiya bo'yicha umumiy soni **15 tadan kam bo'lmagan** ilmiy ish e'lon qilishi, xususan:

- ulardan **10 ta maqola** OAK Ro'yxatiga kiritilgan ilmiy nashrlarda, **1 tasi** tegishli fan tarmog'i rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli ixtisoslashgan ilmiy jurnallarida e'lon qilingan bo'lishi;

- dissertatsiya natijalarining xalqaro va respublika ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida keng muhokamasi asosida kamida **2 ta material** (maqola,

ma'ruza yoki ma'ruza tezisi) xalqaro konferensiya materiallari to'plamida e'lon qilingan bo'lishi;

- ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalari bo'yicha dissertatsiya natijalari yuzasidan monografiya e'lon qilinishi **SHART**.